

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.I.12.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**SHAKAROVA DILFUZA RUZIMURATOVNA**

**TEMIR YO‘L TRANSPORTI XIZMATLARIDAN FOYDALANISH  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH JARAYONLARINI EKONOMETRIK  
MODELLASHTIRISH (TERMIZ TEMIR YO‘L UZELI MISOLIDA)**

**08.00.06 – Ekonometrika va statistika**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Termiz – 2026-yil**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economic  
sciences**

**Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna**

Temir yo‘l transporti xizmatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish jarayonlarini ekonometrik modellashtirish (Termiz temir yo‘l uzeli misolida).....3

**Шакарова Дилфуза Рuzимуратовна**

Эконометрическое моделирование процессов повышения эффективности использования услуг железнодорожного транспорта (на примере Термезского железнодорожного узла).....31

**Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna**

Econometric Modeling of the Processes of Improving the Efficiency of Railway Transport Services (Case Study of the Termez Railway Junction).....61

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....66

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR  
BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.I.12.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**SHAKAROVA DILFUZA RUZIMURATOVNA**

**TEMIR YO‘L TRANSPORTI XIZMATLARIDAN FOYDALANISH  
SAMARADORLIGINI OSHIRISH JARAYONLARINI EKONOMETRIK  
MODELLASHTIRISH (TERMIZ TEMIR YO‘L UZELI MISOLIDA)**

**08.00.06 – “Ekonometrika va statistika”**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Termiz – 2026-yil**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Iqt4048 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.terdu.uz](http://www.terdu.uz)) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xatamov Ochildi Qurbanovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Kasimov Azamat Abdukarimovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Raximov Anvar Norimovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent,

**Yetakchi tashkilot:**

**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.I.12.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (876) 221-74-55; faks: (876) 221-71-17; e-mail: [termizdu@umail.uz](mailto:termizdu@umail.uz))

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 190111, Termiz sh., Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (876) 221-74-55; faks: (876) 221-71-17; e-mail: [termizdu@umail.uz](mailto:termizdu@umail.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2026 yil «\_\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**A.H.Toshqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**U.T.To'lakov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**O.A.Abdug'aniyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

## **Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahon iqtisodiyotida temir yo‘l transporti xizmatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish tashqi savdo hajmini kengaytirish, logistika xarajatlarini kamaytirish va mintaqaviy bog‘liqlikni kuchaytirish orqali milliy raqobatbardoshlikka kuchli multiplikativ ta‘sir ko‘rsatadi. Temir yo‘l tarmoqlari, ayniqsa, yuk va uzoq masofali yo‘lovchi tashishda energiya tejamkorligi va bir yo‘lovchi (yoki bir tonna yuk) hisobidagi emissiyalar pastligi bilan farqlanib, global “yashil” transport siyosatida ustuvor yo‘nalish sifatida e‘tirof etilmoqda<sup>1</sup>. Shu bilan birga, temir yo‘l xizmatlarining samaradorligini oshirish mahsulot aylanishini tezlashtirish, logistik kechikishlar va infratuzilmadagi tirbandlikni qisqartirish orqali iqtisodiy o‘‘sish sur‘atlarini barqarorlashtiradi. Xorijiy tadqiqotlarda “Temir yo‘l yuk tashish xizmatlari samarali tashkil etilgan mamlakatlar transport tizimining muvozanatli tarkibi, past logistika xarajatlari va yuqori tashqi savdo raqobatbardoshligi ustidan ustunlikka ega”<sup>2</sup> ekanligi qayd etilgan. Shu jihatlar temir yo‘l transporti xizmatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish masalasini ilmiy jihatdan kompleks tadqiq etishni strategik zaruratga aylantirmoqda.

Jahon transport tizimida temir yo‘l sohasi yuqoridagi muammolarni kamaytirish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash, yuk tashish tannarxini pasaytirish hamda transport xizmatlari uzluksizligi va ishonchligini oshirishda alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Energiya tejamkorligi, atrof-muhitga nisbatan kam zarar yetkazishi va katta hajmdagi yuklarni uzoq masofalarga samarali tashish imkoniyati temir yo‘l transportini global logistika tizimining tayanch bo‘g‘iniga aylantirmoqda. Shu bois, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda temir yo‘l infratuzilmasini modernizatsiya qilish, elektrlashtirish va raqamli texnologiyalar asosida boshqaruvni takomillashtirish ustuvor yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

Yangi O‘zbekiston sharoitida transport tizimini transformatsiya qilish, uni zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirish va raqobatbardosh logistika infratuzilmasini shakllantirish davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi hamda temir yo‘l transportiga oid Prezident farmon va qarorlarida yuk va yo‘lovchi tashish samaradorligini oshirish, raqamlashtirish jarayonlarini jadallashtirish va xalqaro transport-logistika tarmoqlariga integratsiyani kuchaytirish bo‘yicha kompleks vazifalar belgilangan. Xususan, Termiz temir yo‘l uzeli Surxondaryo viloyatining tayanch transport markazi bo‘lishi bilan birga, Afg‘oniston va Janubiy Osiyo mamlakatlari bilan bog‘lovchi strategik tranzit nuqta sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, temir yo‘l infratuzilmasini modernizatsiya qilish, logistika xizmatlari samaradorligini iqtisodiy-statistik ko‘rsatkichlar asosida baholash, yuk oqimlarini bashoratlash va ekspluatatsion jarayonlarni optimallashtirishga qaratilgan ilmiy

---

<sup>1</sup> 2023 Global rail sustainability report. - [https://uic.org/IMG/pdf/2023\\_global\\_rail\\_sustainability\\_report\\_](https://uic.org/IMG/pdf/2023_global_rail_sustainability_report_)

<sup>2</sup> Bernard Aritua. The Rail Freight Challenge for Emerging Economies How to Regain Modal Share © 2019 International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank 1818 H Street NW, Washington, DC 20433 Telephone: 202-473-1000; Internet: [www.worldbank.org](http://www.worldbank.org)

tadqiqotlar dolzarb bo‘lib, ushbu dissertatsiya aynan mazkur masalalarning ilmiy-amaliy yechimlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilganligi bilan dolzarb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to‘g‘risida”, 2024-yil 31-dekabrda PF-70-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini amalga oshirish doirasida temir yo‘l sohasida transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 21-iyuldagi PF-111-son “Ma‘muriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2023-yil 10-oktabrdagi PQ-329-son “Temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va ushbu sohadagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Mintaqada transport tizimi va infratuzilmasini rivojlantirish, transport tizimining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi rolini baholash, mavjud infratuzilma obyektlaridan foydalanishda optimallik modellardan foydalanish masalalari ko‘plab tadqiqot ishlarida qarab chiqilgan. Jumladan, Aleksandra Koźlak, I.Dostál, Vladimir Adamec, L.Song, L.Yu, S.Li, Mazin AbdelMagid, Yassir AbdelRazig, Dennis Smith, Mark Horner, Juyeong Choi, Kyusik Kim, Billie Ventimiglia, Xiaoheng Deng, Leilei Wang<sup>3</sup> va boshqalar ilmiy izlanishlarida mazkur masalalar tadqiq qilingan.

MDH mamlakatlari olimlaridan V.Chulkov, D.Yu.Katalevskiy, Yu.Ponomarev, A.N.Zedgenizova, N.Yu.Trifonov, V.A.Livinskaya, G.G.Levkin<sup>4</sup> asarlarida transport xizmatlarini prognozlashda imitatsion modellardan foydalanish,

---

<sup>3</sup> Koźlak, Aleksandra. (2017). The role of the transport system in stimulating economic and social development. *Zeszyty Naukowe Uniwersytetu Gdańskiego. Ekonomika Transportu i Logistyka*. 72. 19-33.; Dostál, I. & Adamec, Vladimir. (2011). Transport and its Role in the Society. *Transactions on Transport Sciences*. 4. 43-56.; Song L, Yu L, Li S, Route optimization of hazardous freight transportation in a rail-truck transportation network considering road traffic restriction, *Journal of Cleaner Production* (2023); Mazin AbdelMagid, Yassir AbdelRazig, Dennis Smith, Mark Horner, Juyeong Choi, Kyusik Kim, Billie Ventimiglia, Transportation system performance capabilities for vulnerable populations, *International Journal of Disaster Risk Reduction*, Volume 96, 2023, 103991; Xiaoheng Deng, Leilei Wang, Impact of.

<sup>4</sup> Chulkov V. (2018). Service as a function of transport and an activity in the anthropotechnics management. *MATEC Web of Conferences*. 193. 05013.; Каталевский Д.Ю. & Гареев Т.Р. (2020). Имитационное моделирование для прогнозирования развития автомобильного электротранспорта на уровне региона.// *Балтийский регион*, 12 (2), 118-139.; Ponomarev Y. Развитие Транспортного Комплекса России: Текущее Состояние и Перспективы Развития (Development of the Russian Transport Sector: Current State and Development Prospects) (June 15, 2018); Зедгенизова А.Н. Совершенствование методов оценки спроса на услуги автомобильного транспорта на основе характеристик использования городских территорий: автореф.дис. ... канд.техн.наук: 05.22.10 / Зедгенизова А.Н. - Иркутск, 2013. - 20 с.; Трифонов Н.Ю., Ливинская В.А., Коржуков В.В. Регрессионная модель оценки автомобилей на основе парсинга интернет-данных. «Системный анализ и прикладная информатика». 2020; Г. Левкин. Управление затратами в транспортно-логистических системах на основе применения цифровых технологий. *Вестник Сибирского института бизнеса и информационных технологий* № 2 (34) 2020

iqtisodiyot tarmoqlarini prognozlash, transport xizmatlariga bo'lgan talabni baholash usullari yoritib berilgan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan S.S.G'ulomov, A.H.Toshqulov, O.Q.Xatamov, I.S.Abdullayev, M.I.Akbarov, Sh.A.Mamatqulov, A.N.Sattorov, B.M.Eshquvvatov, U.U.Usmonov, R.A.Xasanov, M.M.Tursunov, Z.Z.To'raqulov, A.B.Murodov, Q.Q.Shodmonov, R.J.Ergashboyev, J.J.Kurbanov, A.K.Bobojonov, I.S.Abdullayev, S.T.Toshaliyeva, O.A.Abdug'aniyev, M.I.Akbarov<sup>5</sup> va boshqalar ilmiy izlanishlarida logistika tizimini raqamlashtirish, mintaqa ijtimoiy iqtisodiy tizimini optimal tartibga solish, transport xizmatlarining ekspluatatsion sifatlarini belgilovchi omillarini aniqlash, transport xizmatlari samaradorligining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar va ularni hisoblash yo'llari, logistik infratuzilmani statistik va ekonometrik usullar asosida baholashning nazariy-uslubiy hamda ilmiy-amaliy muammolari tadqiq etilgan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishi rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Termiz davlat universitetining 2025-2027 yillarga mo'ljallangan rivojlanish strategiyasidagi Mintaqaviy rivojlanish lokomotivi dasturining "Sanoat va infratuzilmani rivojlantirish" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Temir yo'l transporti xizmatlaridan foydalanish jarayonlarini ekonometrik modellashtirish yordamida uning samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

temir yo'l transporti xizmatlaridan foydalanish samaradorligining ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish;

temir yo'l transporti faoliyatini baholash ko'rsatkichlarini tizimlashtirish va tasniflash;

temir yo'l transporti tizimi rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellashtirishning uslubiy masalalarini tadqiq etish;

Surxondaryo viloyatida temir yo'l transporti xizmatlari rivojlanish holati va tendensiyalarini tahlil etish;

Termiz temir yo'l uzeliida yo'lovchi tashishni samarali tashkil etishning iqtisodiy-statistik tahlilini amalga oshirish;

temir yo'l transporti xizmatlari samaradorligini baholash usullari va ko'rsatkichlar tizimini tadqiq etish;

Surxondaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga Termiz temir yo'l uzelinin ta'sirini ekonometrik modellashtirish;

---

<sup>5</sup> G'ulomov S.S. Transport iqtisodiyoti va logistika tizimini boshqarishning nazariy asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsiyalar nashriyoti, turli yillar., Xatamov O.Q. Temir yo'l transportida ekspluatatsion jarayonlar samaradorligini oshirish muammolari. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2022, №3, B. 112–123., Abdullayev I.S. Temir yo'l transportida yuk oqimlarini boshqarishning ekonometrik modellari. // Transport va logistika, 2023, №2, B. 45–57., Akbarov M.I. Temir yo'l transportida xizmat sifati ko'rsatkichlarini baholash. // O'zbekiston temir yo'llari axborotnomasi, 2020, №1, B. 18–29., Mamatqulov Sh.A. Temir yo'l transportida tashish texnologiyalarini optimallashtirish. // Uzbek Journal of Transport Science, 2021, №4, B. 63–74., Sattorov A.N. Temir yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilishning texnik-iqtisodiy asoslari. – Toshkent: Ilm-fan nashriyoti, 2022., Tursunov M.M. Logistika xizmatlari samaradorligini baholashning statistik yondashuvlari. // Statistika va iqtisodiyot, 2023, №1, B. 54–66., To'raqulov Z.Z. Temir yo'l uchastkalarida yuk tashish zichligini hisoblash metodikasi. // Transport statistikasining dolzarb masalalari, 2020, №3, B. 20–31., Ergashboyev R.J. Temir yo'l transportining xalqaro tranzit salohiyatini rivojlantirish omillari. // Global Transport Review, 2021, №2, B. 77–89., Kurbanov J.J. Multimodal tashishlar tizimini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari. // Logistika va ta'minot zanjiri boshqaruvi, 2022, №4, B. 34–48. Abdug'aniyev O.A. Multi-Optional Forecasting of Agricultural Enterprises Activity and Development Indicators // World Journal of Agriculture and Urbanization. – 2023. – Vol. 2, No. 6. – P. 57–61. – ISSN 2835-2866.

mintaqa temir yo‘l transporti asosiy ko‘rsatkichlarini istiqboldagi prognoz parametrlarni hisoblash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Termiz temir yo‘l uzeli tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** temir yo‘l transport tizimi samaradorligini oshirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida tarkibiy kuzatish, tizimli, mantiqiy yondashuvlar, guruhlash, solishtirma tahlil, monografik tahlil, statistik tahlil, klastur usuli, korrelyatsion-regression tahlil, ekonometrik modellashtirish kabi usullar qo‘llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

temir yo‘l transporti tizimini tadqiq etishning uslubiy asoslari ishlab chiqilgan bo‘lib, unga binoan tizim faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari miqdor va sifat jihatdan uch guruhga (yuk tashish, yo‘lovchi tashish va ekspluatatsion ish) ajratib tizimlashtirilgan;

temir yo‘l transport tizimida transport xizmatlari samaradorligini asosiy integral ko‘rsatkichlar yordamida ekonometrik baholash uslubiyati o‘rtacha yuk tashish zichligi hamda o‘rtacha yo‘lovchi tashish zichligi ko‘rsatkichlarini hisobga olgan holda takomillashtirilgan;

Termiz temir yo‘l uzeli yuk tashish hajmining o‘zgarishiga viloyat sanoati, qishloq xo‘jaligi, qurilish, xizmatlar sohasi, chakana savdo tarmoqlari, ishlab chiqarish hajmlari va eksport hajmi o‘zgarishining ta‘sirini baholash uchun ko‘p omilli regressiya tenglamasi hamda uzal daromadini prognozlashda ARIMA(2,2,3) ekonometrik modelidan foydalanish mumkinligi aniqlangan;

Termiz temir yo‘l uzeli ish faoliyatining asosiy iqtisodiy indekatorlari bo‘yicha 2025-2029 yillarga mo‘ljallangan prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Termiz temir yo‘l uzeli faoliyatini baholashning ilmiy-uslubiy asoslari ishlab chiqilib, yuk, yo‘lovchi va ekspluatatsion ish ko‘rsatkichlarga asoslangan tizimli baholash modeli taklif etildi;

temir yo‘l transport tizimida transport xizmatlari samaradorligini baholashning ekonometrik uslubiyati takomillashtirilib, unda o‘rtacha yuk tashish zichligi va o‘rtacha yo‘lovchi tashish zichligi ko‘rsatkichlariga asoslangan integral samaradorlik ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan;

Termiz temir yo‘l uzeli daromadini 2025-2029-yillar uchun prognozlashga mo‘ljallangan ARIMA(2,2,3) modeli ishlab chiqilgan;

Termiz temir yo‘l uzelinin strategik rivojlanishi uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan 2025-2029-yillardagi prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari ishonchliligi tadqiqotchi tomonidan dissertatsiya ishiga doir xorijiy va mahalliy olimlar olib borgan ilmiy-nazariy, metodologik tadqiqotlari asosida tayyorlangan. Tadqiqotda foydalanilgan axborot bazasi O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ va Termiz temir yo‘l uzeli ma‘lumotlar bazasidan olinganligi hamda tegishli taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, unda temir yo‘l transporti xizmatlaridan foydalanish samaradorligini baholash va oshirish jarayonlariga ilmiy-nazariy yondashuv ishlab chiqilgan. Temir yo‘l transporti faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishda ekonometrik modellashtirish usullari qo‘llanilib, transport xizmatlari ko‘rsatkichlari bilan hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikning matematik modeli yaratilgan. Shu orqali temir yo‘l uzellari samaradorligini aniqlashda yangi yondashuv taklif etilgan bo‘lib, bu iqtisodiy tahlil va transport iqtisodiyoti sohasidagi ilmiy bilimlarni boyitadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati esa olingan natijalar va ishlab chiqilgan tavsiyalarni viloyat transport infratuzilmasini rivojlantirish strategiyalarini shakllantirish, Termiz temir yo‘l uzelinig faoliyatini rejalashtirish va prognozlash jarayonlarida amaliy qo‘llash imkoniyati bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari transport tizimida boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslash, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashda amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, oliy o‘quv yurtlarida “Mintaqaviy iqtisodiyot”, “Investitsiya va investitsion faoliyat”, “Logistika”, “Ekonometrika asoslari” va “Statistika” fanlarining o‘quv-uslubiy materiallarini takomillashtirishda qo‘llanilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Temir yo‘l transporti xizmatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish va ekonometrik modellashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tadqiqotda temir yo‘l transporti tizimini tadqiq etishning uslubiy asoslari ishlab chiqilgan bo‘lib, unga binoan tizim faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari miqdor va sifat jihatdan uch guruhga (yuk tashish, yo‘lovchi tashish va ekspluatatsion ish) ajratib tizimlashtirilgan taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktyabrdagi PQ-329-son qarori bilan temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish, boshqaruv va samaradorlikni oshirishga doir vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy va dasturiy hujjatlarni tayyorlash jarayonida metodik asos sifatida qo‘llanildi. (O‘zbekiston temir yo‘llari aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 10-dekabrda 02/4889-25 sonli hamda Termiz mintaqaviy temir yo‘l uzelinig 2025-yil 24-noyabrdagi 04-378-sonli ma‘lumotnomalari). Natijada transport jarayoni samaradorligini kompleks baholash imkonini beruvchi integral ko‘rsatkich shakllantirildi;

temir yo‘l transport tizimida transport xizmatlari samaradorligini asosiy integral ko‘rsatkichlar yordamida ekonometrik baholash uslubiyati o‘rtacha yuk tashish zichligi hamda o‘rtacha yo‘lovchi tashish zichligi ko‘rsatkichlarini hisobga olgan holda takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 31-dekabrda PF-70-son Farmoni asosida temir yo‘l sohasida transformatsiya jarayonlarini jadallashtirishga qaratilgan qarorlar ijrosini ta‘minlash, transformatsiya samaradorligini miqdoriy baholash mezonlarini ishlab chiqishda; Surxondaryo viloyati hokimi tomonidan tasdiqlangan viloyat transport-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarida temir yo‘l

xizmatlaridan foydalanish samaradorligini hududiy darajada baholash va monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirishda amaliy vosita sifatida qo'llanildi. (O'zbekiston temir yo'llari aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 10-dekabrda 02/4889-25 sonli hamda Termiz mintaqaviy temir yo'l uzelinin 2025-yil 24-noyabrda 04-378-sonli ma'lumotnomalari). Mazkur taklifning joriy qilinishi Termiz temir yo'l uzeli tashish jarayonlarida samaradorlikni 4,6 % ga oshirish imkonini berdi;

Termiz temir yo'l uzeli yuk tashish hajmi o'zgarishiga viloyat sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, xizmat ko'rsatish, chakana savdo tarmoqlari ishlab chiqarish hajmlari va export hajmi o'zgarishi ta'sirining ko'p omilli regressiya tenglamasi hamda uzal daromadini prognozlashda *ARIMA(2,2,3)* modeli taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-dekabrda 851-son qarori bilan temir yo'l transporti sohasida davlat tomonidan tartibga solinadigan va bozor tamoyillari asosida ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxatini tasdiqlashda, temir yo'l xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini miqdoriy baholash tizimini shakllantirishda, Prezidentning 2024-yil 21-fevralda PF-37-son Farmoni ("O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida") ijrosini ta'minlash, xususan, transport -logistika xizmatlari bozorini rivojlantirish va hududiy iqtisodiy o'sishni jadallashtirish bo'yicha chora tadbirlarni ilmiy asoslashda hamda Surxondaryo viloyati hokimining sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasida ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilishga doir qarorlarida Termiz temir yo'l uzelinin iqtisodiy ta'sirini baholash va rejalashtirishda qo'llanildi. (O'zbekiston temir yo'llari aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 10-dekabrda 02/4889-25 sonli hamda Termiz mintaqaviy temir yo'l uzelinin 2025-yil 24-noyabrda 04-378-sonli ma'lumotnomalari). Natijada ishlab chiqilgan baholash tizimi transport xizmatlari samaradorligini aniqlashda miqdoriy yondashuvni joriy etish hamda temir yo'l tarmog'ining iqtisodiy faoliyatini obyektiv baholash imkonini yaratgan;

Termiz temir yo'l uzeli ish faoliyatining asosiy iqtisodiy indikatorlari bo'yicha 2025-2029 yillarga mo'ljallangan prognoz parametrlari ishlab chiqilgan. Ushbu taklifdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2024 -yil 31-dekabrda PF-70-son Farmoni asosida temir yo'l sohasida transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va investitsiya loyihalarini rejalashtirish bo'yicha qarorlar loyihasini ishlab chiqishda, Termiz temir yo'l uzeli boshqaruv organlarida yuk va yo'lovchi tashish jarayonlarini o'rta va uzoq muddatli rejalashtirish, ekspluatatsion xarajatlarni optimallashtirish hamda daromadlarni oshirish yo'nalishlarini belgilashda foydalanilgan. (O'zbekiston temir yo'llari aksiyadorlik jamiyatining 2025-yil 10-dekabrda 02/4889-25 sonli hamda Termiz mintaqaviy temir yo'l uzelinin 2025-yil 24-noyabrda 04-378-sonli ma'lumotnomalari). Natijada Termiz temir yo'l uzelinin iqtisodiy ko'rsatkichlari prognozining joriy etilishi hududda yuk va yo'lovchi tashish jarayonlarini rejalashtirishni ilmiy asoslash, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish

hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini samarali qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan 3 ta xalqaro 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etgan ilmiy jurnallarda: xorijiy jurnallarda 5 ta ilmiy maqola, mahalliy jurnallarda 5 ta ilmiy maqola, xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida 6 ta tezlari chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 155 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Dissertatsiya ishining **kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot ishining **“Temir yo'l transporti tizimini tadqiq etish va rivojlanishini ekonometrik modellashtirishning ilmiy-uslubiy masalalari”** nomli birinchi bobida temir yo'l transporti xizmatlari samaradorligining ilmiy-nazariy asoslari, uni oshirish jarayonlarini ekonometrik modellashtirish mohiyati va mazmuni hamda xorijiy mamlakatlar tajribalari batafsil yoritilgan. Shuningdek, temir yo'l transporti tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha xorij tajribalari o'rganilib, uni hudud temir yo'l uzelliga qo'llash bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ma'lumki, O'zbekiston temir yo'l transporti yo'lovchilar tashishining hududlararo asosiy shakli bo'lib, mamlakat bo'ylab keng yo'nalishli tarmog'i orqali xizmat ko'rsatadi. Harakat jadvallarining puxta ishlab chiqilgani, turli sinfdagi zamonaviy vagonlarda ko'rsatiladigan servis xizmatlari hamda chiptalarning vokzallar, savdo shoxobchalari va onlayn platformalar orqali sotilishi mazkur tizimning funksional samaradorligini ta'minlaydi. Vokzal infratuzilmasi va vagonlardagi qulayliklar yo'lovchilarga xavfsiz, tejamkor va qulay tashish imkonini berib, temir yo'lni ustuvor transport vositasi sifatida shakllantirgan.

Ushbu xususiyatlar temir yo'l transportini tadqiq etishda tizimli modellashtirish yondashuvini qo'llashni talab etadi. Iqtisodiy-matematik modellar tizimning iqtisodiy va matematik tavsifini berib, amaliy hisob-kitoblarni bajarish hamda samaradorlik omillarini aniqlash imkonini yaratadi. Shuningdek, xizmat sifati, infratuzilma, resurslar, boshqaruv jarayonlari, investitsion-innovatsion faoliyat, me'yoriy-huquqiy baza va xalqaro hamkorlik tizimning barqaror rivojlanishida

muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Yuqoridagi omillar tizimli o‘rganilgan holda, muallif tomonidan temir yo‘l transporti tizimining barqaror rivojlanishini tadqiq etishga doir uslubiy asoslar ishlab chiqildi (1-rasm)



**1-rasm. Temir yo‘l transporti tizimining barqaror iqtisodiy rivojlanishini tadqiq etish va modellashtirishning uslubiy asoslari<sup>6</sup>.**

<sup>6</sup> Nazariy bilimlar asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

Temir yo‘l transporti tarmog‘i o‘zining bir qator rivojlanish xususiyatlari bilan boshqa tarmoqlardan ajralib turadi va mazkur jihatlar uning milliy iqtisodiyotdagi strategik o‘rnini belgilaydi. Xususan, tarmoq xizmat ko‘rsatishning yuqori va barqaror o‘sish sur‘atlariga ega bo‘lib, innovatsion sig‘imining yuqoriligi tufayli boshqa tarmoqlarga nisbatan innovatsion rivojlanishga ko‘proq moyildir.

Temir yo‘l transporti murakkab ko‘p omilli tizim bo‘lib, uning rivojlanishini bir yoki bir nechta ko‘rsatkichlar orqali tavsiflash qiyin. Shu sababli tarmoqni modernizatsiya qilishda investitsion loyihalarni tanlash, ularning samaradorligini baholash jarayoni ham murakkab xarakter kasb etadi.

Bundan tashqari, tarmoqning uzoq muddatli rivojlanish tendensiyalarini aniqlash, iqtisodiy samaradorligini baholash va investitsion jozibadorligini tadqiq etish alohida ahamiyatga ega. Temir yo‘l transportining multiplikativ ta‘siri yuqori bo‘lib, uning rivojlanishi sanoat, qishloq xo‘jaligi, turizm, savdo kabi iqtisodiyotning boshqa yo‘nalishlariga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Temir yo‘l transporti tizimini rivojlantirishning asosiy maqsadlari xavfsizlikni oshirish, tashish jarayonining xarajatlarini kamaytirish, vaqt me‘yorlaridan samarali foydalanish, atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirish, yo‘nalishlarni optimallashtirish hamda xizmat sifati va narx jihatidan raqobatbardoshlikni ta‘minlashdan iborat (2-rasm).

|    |  |
|----|--|
| 1  | Temir yo‘l hamda ulardan foydalanuvchilarning xavfsizligini oshirish va uning atrof - muhitga salbiy ta‘sirini kamaytirish   |
| 2  | Yetkazib berishda sarf-xarajatlarni kamaytirish hamda xizmat va narxlar borasida raqobatbardoshlikni ta‘minlash  |
| 3  | Yetkazib berishda vaqt me‘yorlaridan yanada unumli foydalanish va marshrutlarning eng optimal variantini tanlash   |
| 4  | Temir yo‘l transporti jozibadorligi va qulayligini oshirish hamda turizm xizmatlarini rivojlantirishda mamlakat quruqliklarida belgilangan harakat tezliklarini oshirish |
| 5  | Temir yo‘l transpoti tizimida mehnat unumdorligi va sohani raqamlashtirish darajasini oshirish   |
| 6  | Temir yo‘l transporti sohasining me‘yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish va davlatlararo standartlarga uyg‘unlashtirish  |
| 7  | Temir yo‘l liniyalari quvvati va o‘tkazish qobiliyatini oshirish   |
| 8  | Davlatlararo temir yo‘l chegara punktlarini rivojlantirish, ularning texnik jihozlanishini takomillashtirish   |
| 9  | Transport koridorlari tizimini rivojlantirish uchun multimodal transport va logistika markazlari tizimini takomillashtirish  |
| 10 | Temir yo‘l transportiga investitsiyalarni jalb qilish va tranzit yuk tashishning o‘sishi uchun sharoit yaratish  |


## 2-rasm. Mamlakat temir yo‘l transport tizimning samaradorligini oshirish yo‘nalishlari<sup>7</sup>

<sup>7</sup> Nazariy bilimlar asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

Umuman olganda, temir yo‘l transporti mamlakat ichki va tashqi iqtisodiy aloqalarini bog‘lovchi strategik infratuzilma tarmog‘i bo‘lib, yuk va yo‘lovchilarni xavfsiz hamda iqtisodiy jihatdan samarali tashishni ta‘minlaydi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida, temir yo‘l transporti faoliyatini baholashga xizmat qiluvchi ko‘rsatkichlar tizimlashgan holda shakllantirildi (3-rasm).

Ushbu tizim transport jarayonining uch asosiy yo‘nalishini qamrab olib, ko‘rsatkichlarni miqdoriy va sifat guruhlariga ajratishni nazarda tutadi. Mazkur ko‘rsatkichlar temir yo‘l tizimining ishlab chiqarish salohiyati hamda tashish jarayonining umumiy hajmini aniqlash, sifat ko‘rsatkichlari esa transport xizmatlari samaradorligi va ishonchligini baholash imkonini beradi.



**3-rasm. Temir yo‘l transporti faoliyati ko‘rsatkichlari tizimi<sup>8</sup>.**

<sup>8</sup> Manba: Tadqiqotlarni o‘rganish natijalari asosida muallif ishlanmasi.

Bu guruhga tashishlarning o‘z vaqtida bajarilish darajasi, harakat tarkibining texnik tayyorligi, lokomotiv va vagonlarning ishga yaroqlilik holati, harakat xavfsizligi ko‘rsatkichlari, ekspluatatsion intizom, xizmat ko‘rsatish sifati va texnologik jarayonlar barqarorligi kabi mezonlar kiradi. Mazkur ko‘rsatkichlar temir yo‘l xizmatlarining sifat darajasini aniqlash va foydalanuvchi ehtiyojlariga javob berish qobiliyatini baholash imkonini beradi.

Umuman olganda, ushbu ko‘rsatkichlar tizimi temir yo‘l transporti faoliyatini har tomonlama tahlil qilish, samaradorlikni oshirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va transport jarayonlarini optimallashtirishda muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.


### 1-jadval

#### Termiz temir yo‘l uzelinin uzunligini Surxondaryo viloyati shahar va tumanlari kesimida statistik taqsimlanishi<sup>9</sup>

| Guruhlar | TYT uzunligining sifat mezonlari | Shahar va tumanlardagi TYT uzunligining oraliq ko‘rsatkichlari |        | Uzunlik (km) oraliqlari bo‘yicha shahar va tumanlar soni | Uzunlik (masofa, km) oraliqlari bo‘yicha shahar va tumanlar nomi                            |
|----------|----------------------------------|--|--------|--|---|
|          |                                  | ≥  | <      | soni   |   |
| 1-guruh  | Juda past                        | 0  | 26,46  | 8 ta   | Oltinsoy, Bandixon, Sherobod, Qiziriq, Sariosiyo, Angor, Uzun tumanlari hamda Termiz shahri |
| 2-guruh  | Past                             | 26,46  | 52,92  | 5 ta   | Jarqo‘rg‘on, Qumqo‘rg‘on, Denov, Shurchi va Muzrabot tumanlari                              |
| 3-guruh  | Qoniqarli                        | 52,92  | 79,38  | 0 ta   | ---   |
| 4-guruh  | Yaxshi                           | 79,38  | 105,84 | 1 ta   | Boysun tumani   |
| 5-guruh  | Juda yuqori                      | 105,84   | 132,3  | 1 ta   | Termiz tumani   |

1-jadvalda keltirilgan Termiz temir yo‘l uzeli (TTU) uzunligi 5 ta sifat toifasiga ajratildi: juda past, past, qoniqarli, yaxshi va juda yuqori. Har bir toifaga mos holda shahar/tumanlar soni, uzunlik oralig‘i (km) va hududlar nomi keltirildi. Hududlar soni bo‘yicha tahlil etilganda, 8 ta tuman “juda past” sifat toifasiga (53,3 %ni tashkil etadi), 5 ta tuman “past” toifasiga (33,3 %ni tashkil etadi), 1 ta tuman “yaxshi” (6,7 %ni tashkil etadi), “juda yuqori” toifaga ham 1 ta tuman (6,7%ni tashkil etadi) tegishliligi ma’lum bo‘ldi. Shuningdek, “qoniqarli” toifadagi tumanlar aniqlanmadi. ((0%ni tashkil etadi) bu muhim ko‘rsatkich sifatida qayd etildi) (4-rasm).

<sup>9</sup> Manba: Tadqiqotlarni o‘rganish natijalari asosida muallif ishlanmasi.



**4-rasm. Surxondaryo viloyatidagi temir yo‘l tarmog‘i uzunligi bo‘yicha shahar va tumanlarning foiz taqsimoti<sup>10</sup>**


Olingan natijalar viloyat hududlarining katta qismida (86,6 foizdan ortiq hududlarda) temir yo‘l infratuzilmasini kengaytirish va modernizatsiya qilish zarurligini tasdiqlaydi.

Ko‘rsatkichlarni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida, guruhlarga ajratish jarayonida mavjud ma‘lumotlar me‘yorlashtirildi. Me‘yorlashtirishda statistik va iqtisodiy tahlillarda eng ko‘p qo‘llaniladigan va eng intuitiv yondashuvlardan biri hisoblangan klassik “Min–Max me‘yorlashtirish (normalizatsiya)” usulidan foydalanildi va u asosida hisob-kitoblar amalga oshirildi (5-rasm):

$$r_n = \frac{r_i - r_{min}}{r_{max} - r_{min}} \quad (1)$$

Ushbu yondashuv ma‘lumotlarni 0 dan 1 gacha oraliqqa keltirish imkonini berdi.

| Guruhlar | O‘rtacha (r) | $r_n$ me‘yorlash tirilgan |
|----------|--------------|---------------------------|
| 1-guruh  | 13,23        | 0,0999                    |
| 2- guruh | 39,69        | 0,2999                    |
| 3- guruh | 66,15        | 0,5                       |
| 4- guruh | 92,61        | 0,7                       |
| 5- guruh | 119,07       | 0,9                       |



**5-rasm. Temir yo‘l tarmog‘i uzunligini me‘yorlashtirilgan natijalari diagrammasi<sup>11</sup>.**

Dissertatsiyaning “Mintaqa temir yo‘l transporti rivojlanishi tendensiyalari tahlili va samaradorligini baholash uslubiyati” nomli ikkinchi bobida Surxondaryo viloyatida temir yo‘l transporti xizmatlari rivojlanish holati va tendensiyalari batafsil bayon etilgan, TTU ida yo‘lovchi tashishni samarali tashkil etishning iqtisodiy-statistik tahlili hamda temir yo‘l transporti xizmatlar samaradorligini baholash va ko‘rsatkichlar tizimi ilmiy asosda tahlil qilingan.

<sup>10</sup> Manba: Muallifning statistik hisoblashlar asosida olgan natijalari.

<sup>11</sup> Manba: Muallifning statistik hisoblashlar asosida olgan natijalari.

2010–2024 yillar davomida yuk va yo‘lovchi tashish hajmi hamda yuk va yo‘lovchi aylanmasi ko‘rsatkichlarining mutlaq o‘shish, o‘shish sur‘ati, orttirma o‘shish, 1 foiz qo‘shimcha o‘shish qiymati, mutlaq jadallashish (yoki sekinlashish) sur‘ati va Ryabtsev indeksi yordamida iqtisodiy-statistik jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu davr mobaynida TTU da yuk va yo‘lovchi tashish samaradorligini baholash bo‘yicha mualliflik taklifi ishlab chiqilib, amaliy jihatdan asoslab berilgan. Surxondaryo viloyatida transport xizmatlari sohasi umumiy xizmatlar tizimining ajralmas qismi sifatida shakllanib bormoqda. Quyidagi 2-jadvalda ushbu sohaning 2010–2024 yillardagi rivojlanish dinamikasi iqtisodiy-statistik tahlil asosida yoritilgan.

**2-jadval**

**Surxondaryo viloyatida 2010–2024 yillarda umumiy va transport xizmatlari hajmlarining iqtisodiy-statistik tahlili<sup>12</sup>**

| Yillar   | 2010  | 2011    | 2012    | 2013    | 2014    | 2015    | 2016    | 2017    | 2018    | 2019    | 2020    | 2021     | 2022     | 2023     | 2024     | Jami            | O‘rtacha      |
|--|-------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|---------|----------|----------|----------|----------|-----------------|---------------|
| Umumiy xizmatlari (mlrd. so‘m)                         | 796,3 | 1 085,3 | 1 450,8 | 1 918,0 | 2 471,4 | 3 067,8 | 3 845,3 | 4 485,5 | 6 079,6 | 6 981,9 | 8 013,9 | 10 387,4 | 12 838,4 | 15 353,7 | 21 619,8 | <b>100395,1</b> | <b>6693,0</b> |
| Transport xizmatlari (mlrd. so‘m)                      | 234,3 | 300,2   | 383,7   | 485,9   | 622,4   | 732,9   | 870,2   | 932,0   | 996,7   | 1 150,0 | 1 252,6 | 1 608,4  | 1 922,0  | 2 398,9  | 2987,4   | <b>16877,6</b>  | <b>1125,2</b> |
| Transport xizmatlari ning umumiy xizmatlar dagi ulushi | 0,29  | 0,28    | 0,26    | 0,25    | 0,25    | 0,24    | 0,24    | 0,23    | 0,21    | 0,16    | 0,16    | 0,16     | 0,15     | 0,14     | 0,15     | <b>3,39</b>     | <b>0,23</b>   |

2-jadval ma’lumotlari tahlil qilinganda, 2010–2024 yillar davomida Surxondaryo viloyatida xizmatlar sohasi hajmi barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon etdi. Tahlil davrida xizmatlar sohasining umumiy hajmi 100395,1 mlrd. so‘mni tashkil etib, bu ko‘rsatkichning yillik o‘rtacha hajmi 6693,0 mlrd. so‘mga teng bo‘lganligi aniqlandi. Shuningdek, ushbu davr mobaynida transport xizmatlari hajmi 16877,6 mlrd. so‘mni tashkil etganligi va ularning yillik o‘rtacha qiymati esa 1125,2 mlrd. so‘mga tengligi kuzatildi.

Mazkur ko‘rsatkichlar transport xizmatlari tarmog‘ining viloyat xizmatlar sohasi rivojlanishida muhim o‘rin tutayotgani ma’lum bo‘ldi. Umumiy xizmatlar hajmining oshib borishi bilan bir qatorda, transport xizmatlari ulushining saqlanib qolishi va 2020 yildan boshlab nisbatan faollashganligi kuzatildi. Bu holat so‘nggi yillarda viloyat transport infratuzilmasini rivojlantirish, yuk va yo‘lovchi tashish

<sup>12</sup> Manba: Muallifning statistik hisoblashlar asosida olgan natijalari.

hajmlarini kengaytirish hamda logistika xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar bilan izohlanadi.

Tahlil natijalariga asoslanib, xizmatlar sohasi tarkibida transport tarmog'ining o'sish sur'atlari nisbatan barqaror dinamikaga ega ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, tadqiqot mobaynida tarkibiy o'zgarish darajasi statistik tahlil etildi. Iqtisodiy ko'rsatkichlardagi tarkibiy o'zgarishlarni aniqlashda V.M. Ryabtsev<sup>13</sup> tomonidan taklif etilgan indeks yordamida hisoblab chiqildi hamda o'zgarishlarning jadallik darajasi baholandi. Chunki, ushbu indeksdan foydalanish, uning qiymati viloyat tarkibiy o'zgarishlari davri, ko'rsatkichlari soniga bog'liq emasligi va indeks qiymatini ortiqcha baholashga imkon bermasligi bilan izohlanadi:

$$K_R = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^n (d_1 - d_0)^2}{\sum_{i=1}^n (d_1 + d_0)^2}} \quad (2)$$

bu yerda  $K_R$  – tarkibiy o'zgarishlar koeffitsiyenti;  $d_1, d_0$ - asosiy va hisobot tuzilmalari;  $i = 1, 2, 3 \dots$ ;  $n$  – davrlar soni.

Ushbu ko'rsatkich 0 dan 1 gacha o'zgarib turadi va ko'rsatkich o'sishi tarkibiy o'zgarishlar ta'sirini, ularning ahamiyatini ko'rsatadi, bu esa tarkibiy o'zgarishlar dinamikasini tahlil qilish imkonini beradi

2010–2024 yillar TTU da yo'lovchi tashish hajmi va o'rindiqlar sonining o'zgarish dinamikasi asosida yo'lovchi tashishda tashkil etilgan o'rindiqlar sonining tarkibiy o'zgarishlar qiymati  $K_{orr} \approx 0,087$  ekanligi aniqlandi. Yo'lovchilar sonining tarkibiy o'sishi tahlil qilinib,  $K_{yol} \approx 0,141$  qiymatga ega bo'ldi. Yo'lovchi tashishda tashkil etilgan o'rindiqlar soni yillar kesimida past darajadagi tafovut bilan o'zgargan bo'lsa, yo'lovchilar sonining o'zgarishida ham shunga o'xshash, ya'ni nisbatan barqaror o'sish sur'ati kuzatilgan.

TTU da 2010–2024 yillarda yo'lovchi tashish hajmi va o'rindiqlar sonining o'zgarish dinamikasi tahlil etilganda, yo'lovchi tashishda tashkil etilgan o'rindiqlar soni past darajadagi tafovut bilan o'zgarganligi aniqlandi. Shu kabi yo'lovchilar soni o'zgarishi ham past darajadagi tafovut bilan o'zgarishi ma'lum bo'ldi.

Bundan tashqari, viloyatdagi temir yo'llar va ular orqali tashilgan yuk hajmi shuningdek yo'lovchi tashish xizmatlari orasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilindi (3-jadval). Unga ko'ra, temir yo'l uzeli orqali tashilgan yuk hajmi hamda undan foydalanilgan temir yo'llar umumiy uzunligi o'rtasidagi nisbat asosida yuk tashish samaradorligi baholandi. Baholashda temir yo'llarning uzunligi (km hisobida), tashilgan yuk hajmi (million tonna) va tashilgan yo'lovchilar miqdori (nafar)dan foydalanildi. Yuk tashishda samaradorlik ko'rsatkichi deb tanlangan 1 kalendar yili oralig'ida temir yo'llar orqali tashilgan umumiy yuk (mln.tonna)ning foydalanilgan temir yo'llar uzunligiga (km) nisbatiga aytiladi.

$$YuTSK = \frac{TYH}{UTU} \frac{mln\ tonna}{km} \quad (3)$$

bu yerda  $YuTSK$  –yuk tashishdagi samaradorlik ko'rsatkichi;

$TYH$  –temir yo'llar orqali tashilgan yuk hajmi (tonna hisobida);

$UTU$  – umumiy temir yo'l uzunligi (km hisobida).

<sup>13</sup> Рябцев В. М., Чудилин Г. И. Региональная статистика:учебник . М.: МИД, 2001. 380 с

**2010-2024 yillarda Termiz temir yo‘l uzeli orqali tashilgan yuk miqdori va foydalanilgan temir yo‘llarning umumiy uzunligi<sup>14</sup>**

| Yillar   | 2010  | 2011  | 2012  | 2013  | 2014  | 2015  | 2016  | 2017  | 2018  | 2019  | 2020  | 2021  | 2022  | 2023  | 2024  |
